



MILLIY TIL SOFLIGINI SAQLASH

NADIROVA NARGIZA NARBO‘TAYEVNA

Jizzax Shahar 17-maktab boshlang‘ich sinf
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Milliy til-millatning ruhi, qadr-qiyamatidir. Shu jihatdan har bir xalq o‘z qadr-qiyamati yalovbardori sifatida ona tilini asrab-avaylashi, sofligini saqlashi umumbasahariyat oldidagi eng mas’uliyatli burch bo‘lmog‘i lozim. Mazkur maqolada mana shunday oliyjanob vazifalar va ularni amalga oshirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy til, nutq sofligi, me’yor, dunyo tillari.

Аннотация. Национальный язык – это дух и ценность нации. В связи с этим каждый народ, как создатель собственного достоинства, должен сохранять свой родной язык, сохранять его чистоту, а сохранение его чистоты должно быть самой ответственной обязанностью перед широкой общественностью. В этой статье обсуждаются эти благородные задачи и их достижения.

Ключевые слова: Национальный язык, чистота нитка, пуризм, норма, мировые языки.

Annotation. National language is the spirit and value of a nation. In this regard, every nation, as a creator of its own dignity, should preserve its native language, preserve its purity, and maintain its purity should be the most responsible duty before the general public. This article discusses these noble tasks and their accomplishments.

Keywords: National language, purity of nitq, norm, world languages.

Millatning qadr-qiyamati bo‘lgan ona tili sofligini saqlash har bir xalq va elat uchun birlamchi vazifadir. Bu vazifani amalga oshirish uchun nafaqat tilshunoslar,



balki har bir millat vakili mas'uldir. Tilni zararli va yot so'zlardan saqlash tilshunoslikda deb nomlanadi.

Yangi kirib kelgan til birliklarini o'rganish tajribasi shundan dalolat beradiki, boshqa tillardan so'z olish jarayoni juda tabiiy va umumiy. Biroq, tilga yangi kirib kelgan birliklarga nisbatan ko'pincha ikkita ekstremal to'qnash keladi: bir tomondan, xorijiy tillarga oid so'zlar va iboralarning nutqda qo'llanilishi, boshqa tomondan, barcha begona narsalarni inkor etish va faqat asl so'zni ishlatish istagi.

Lingvistik tushunchasi R.A.Budagov (1965), R.E. Keller (1995), V.N. Yartseva (2004)larning ning monografiyalarida, M.Guxman, N.N. Semenyuk N.S.Babenko (1984), Stepanova va I.I.Chernishyovalarning (1986) o'quv qo'llanmalarida, M.E.Geers (2002), L.V.Jitnikova (1998), S.S.Izyumskaya(2000)larning dissertatsion tadqiqotlarida uchraydi. Bu tadqiqotlarda lingvistik ning paydo bo'lishiga hissa qo'shadigan o'ziga xos omillar, uning yaratuvchilari, turlari va samaradorligi haqida tushunchalar beriladi.

Birinchi o'zbek professori Fitrat: "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlilik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir.

Dunyoni eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili yona xud turkchadir." [2]- fikir билдирганида turkiy tilning kelajagi haqida qayg'urgan edi. Til taraqqiyotining qonuni shunday ekanki, xalq qancha qadimiy madaniyatga ega bo'lsa, shunga muvofiq ravishda so'zlari va iboralari ham o'zgarishga yuz tutar ekan. Bu hodisani deyarli har bir xalq tilida ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda dunyo tillarining oldingi o'rinlariga da'vogarlik qilayotgan ingliz tili ham yillar davomida o'zgara-o'zgara yozuv va og'zaki nutqi o'rtasida farqlar ko'payib ketdi.Bu jarayon nafaqat xorijiy tilni o'rganuvchilar, balki inglizzabon so'zlashuvchilar uchun ham qiyinchilik tug'dirmoqda.

Yer yuzida mutlaqo sof birorta til yo'q, albatta, biridan boshqasiga so'z o'tadi. Biz istaymizmi, yo'qmi, baribir, tabiiy jarayon.

Muhimi – bunda me'yor va o'zbek tili qonuniyatlariga, ijtimoiy-nutqiy odatlarga uyg'unlikni inobatga olish. Ana shu asosda tilimiz lug'at xazinasidan o'rin olgan juda ko'p arab, fors, rus va boshqa tillarning so'zlari borki, ularning begona tilga oidligini mutaxassis bo'lmagan odam sezmaydi ham.

Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingandan keyin kanselyariya, grupp, ministr, oblast, rayon, plan, redaktor, sekretar, tekst, tema kabi rus tilidan yoki u orqali boshqa tillardan kirgan bir qancha so'zlar o'rniga tavsiya etilgan devonxona, guruh, vazir, viloyat, dastur, tuman, reja, muharrir, kotib, matn, mavzu kabi arabcha, forsha so'zlar bugun o'zbek tilining leksik me'yoriga aylanib bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, boshqa tildan so'z olinganda, bu so'z talaffuz jihatidan oluvchi tilning tovush qonuniyatlariga muayyan bir darajada moslashtirilmog'i maqsadga muvofiq.



IQTIDOR & INTELEKT

ILMIY-DINIY

Shu narsani tan olish lozimki, har qanday istakdan qat'i nazar, peshqadam davlatning tilidan boshqa tillarga u yoki bu zaruriyat bois so'z kirib kelaveradi.

Fan va texnologiyadagi katta-kichik kashfiyotlar, yutuqlar, eng kami, shu kashfiyotchining ismi shaklida yoki yana boshqa biror shaklda o'zga tillarga kirish uchun osonlikcha yo'l topaveradi.

Tarixda ham shunday bo'lgan, bu tabiiy jarayon. Ayni fikrni isbotlab o'tirishning hojati yo'q. Birgina dunyo tillarining deyarli barchasidagi algoritmlar so'zining Al-Xorazmiy, meditsina so'zining Ibn Sino ekanligini eslashning o'zi kifoya. Bugun ham shunday: Mercedes, Soni, Samsung, Adidas, Nayk, Coca-Cola kabi yuzlab muayyan bir tilning so'zlari butun dunyo tillariga kirib bo'lgan. Mamlakatimizdagi jadal iqtisodiy islohotlar tufayli auksion, bankomat, biznes, broker, birja, valyuta, investitsiya, ipoteka, kredit, lizing, makler, marketing, menejment, monopoliya, xolding kabi allaqancha xorijiy so'z o'zbek adabiy tilining lug'at xazinasidan joy olib ulgurdi. Albatta, bu so'zlar yangi, ilg'or iqtisodiy g'oyalar bilan birga kirib kelmoqda. Shu o'rinda E.Vohidov fikrlari bizga asqotadi: "Qoida, yo'l-yo'riq" ma'nosidagi "dastur" so'zi tilimizdan mustahkam joy olayotgani-quvonchli hol. Bu yo'lda sobitqadam bo'lishimiz kerak. Lekin tilimizni tozalaymiz deb, xalqaro atamalarni yalpi surib chiqarish ham to'g'ri emas. Ular ham yangi zamonda topgan til boyligimiz. Inson degan so'z yonida bashar, odam, odamzod, jon, shaxs, zot, banda kabi atamalarimiz turganidek, dastur yonida programma, muammo yonida problema, atama, istiloh qatorida termin bo'lsa, arava, ulov, markab bilan yondosh transport ham kunimizga yarab tursa, o'zbekcha aytganda teshib chiqmaydi [1:89].

Xulosa, Albatta, biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylarning vorislari sifatida ona tilimiz sofliyini asrab-avaylashimiz lozim, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish, til madaniyatini shakllantirish borasida hali ko'p ish qilishimiz kerak.



ADABIYOTLAR ROYXATI.

1. Э.Вохидов. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 152 б.
2. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/21-fevral-xalqaro-ona-tilikuni.html>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

